



SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO MASJIDLARI ME'MORCHILIGI

Qarshiboyeva Mavluda Abdullayevna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Тел: +998909852091

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19349255>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2026 yil

KEYWORDS

Shayboniylar, Buxoro
me'morchiligi, masjidlar, diniy
inshootlar, me'moriy an'analar,
Buxoro me'morchilik maktabi,
XVI asr.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Shayboniylar davrida Buxoro masjidlari me'morchiligining shakllanishi, taraqqiyoti va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XVI asrda Buxoroda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, xususan Ubaydullaxon, Abdulazizxon I va Abdullaxon II davrida qurilgan hamda ta'mirlangan masjidlarning me'moriy tuzilishi, funksional vazifalari va badiiy bezaklari yoritiladi. Masjidi Kalon, Xoja Kalon masjidi, Xoja Zayniddin masjid-xonaqohi, Volidai Abdulazizxon masjidi, Shoh Axsiy, Fayzobod, Namozgoh va Ko'kaldosh masjidlari misolida Shayboniylar davri masjid me'morchiligining asosiy tamoyillari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada epigrafik manbalar, vaqf hujjatlari va yozma tarixiy asarlar asosida mazkur inshootlarning tarixiy-madaniy ahamiyati hamda Buxoro me'morchilik maktabi taraqqiyotidagi o'rni baholanadi.

XVI asrda Movarounnahr hududida siyosiy markazlashuv va madaniy taraqqiyot jarayonlarining kuchayishi ta'lim tizimi, ilm-ma'rifat va ijtimoiy muassasalar rivojida yaqqol aks etdi. Ayniqsa, shayboniylar hukmronligi davrida masjid va madrasalar jamiyat hayotining muhim ijtimoiy institutlari sifatida shakllanib, ularning vazifalari faqat diniy ta'lim doirasi bilan cheklanib qolmadi. Mazkur davrda madrasalar ilm-fan taraqqiyoti, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvi tizimi uchun zarur kadrlar tayyorlashda muhim o'rin egalladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shayboniylar davri Buxoro me'morchiligi, xususan XVI–XVII asrlar me'moriy taraqqiyoti masalasi tarixshunoslikda turli davrlarda va turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur mavzuni yoritishda umumiy me'morchilik tarixiga oid fundamental tadqiqotlar, Buxoro shahrining me'moriy qiyofasi va alohida obidalarga bag'ishlangan maxsus izlanishlar, epigrafik manbalar, yozma tarixiy asarlar hamda zamonaviy tadqiqotlar muhim manbashunoslik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzuni har tomonlama va chuqur yoritishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanish muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, tarixiy-izchillik metodi madrasalarning vaqt davomida yuz bergan funksional o'zgarishlari hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Solishtirma tahlil esa Abdullaxon II

davri madrasalarini Temuriylar davri ta'lim muassasalari bilan qiyosiy o'rganish orqali ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, tizimli yondashuv madrasa, masjid, bozor va vaqf institutlarini o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan yagona ijtimoiy-madaniy tizim doirasida tahlil qilish imkonini yaratadi. Arxitektura-tahliliy metod esa madrasalarning reja-tuzilishi, ichki funksional zonalari hamda makoniy tashkil etilishi xususiyatlarini aniqlash orqali ta'lim jarayonining moddiy va tashkiliy asoslarini ilmiy nuqtayi nazardan yoritishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. XVI asrda Shayboniylar davlatining poytaxti bo'lgan Buxoro o'z taraqqiyotining somoniylar davridan keyingi eng yuksak va yorqin bosqichlaridan birini boshdan kechirdi. Ayniqsa, Buxoroning XVI asrdagi me'morchiligi alohida ilmiy e'tiborga molikdir. Zero, Shayboniy hukmdorlar Ubaydullaxon (1512–1540), uning o'g'li Abdulazizxon I (1540–1550) hamda, ayniqsa, Abdullaxon II (1556–1598) hukmronligi davrida shaharda keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi.

V.L. Voronina ta'kidlaganidek, mazkur davr me'morchiligida "Temur va uning avlodlari davridagidek ulug'vorlik va hashamat emas, balki ommaviylik va maqsadga muvofiqlik asosiy mezon bo'lgan. Davrning muhim yutug'i ham aynan shunda namoyon bo'ladi"[4, –B.304].

Shayboniylar davrida me'morchilik sohasidagi dastlabki yirik qurilish tashabbuslari Ubaydullaxon tomonidan Bobur va Safaviylar qo'shinlari ustidan qozonilgan g'alabalar natijasida qo'lga kiritilgan moddiy boyliklar hisobiga amalga oshirilgan. Jumladan, 1513-yilda G'ijduvon yurishi davomida qo'lga kiritilgan mablag'lar evaziga 1514–1515-yillarda Masjidi Kalonning peshtoq va old fasad qismi qayta qurilib, mayolika hamda koshinlar bilan bezatilgan[8, –B.101]. Masjidning kirish qismidagi peshtoqda 1542-yilda marmar lavhaga Abdulazizxon I ning Buxoro aholisini ayrim soliqlardan ozod etish haqidagi farmoni bitilgan bo'lib, mazkur matn Nuriddin Muhammad o'g'li Mirshayx al-Ruroni tomonidan naqsh etilgan[7, –B. 161].

Shuningdek, Mulla Orziy masjidi, ya'ni Toqi Sarrofon masjidi 1515–1516-yillarda barpo etilgan. Ushbu masjid dastlab mustaqil inshoot sifatida qurilgan bo'lib, Toqi Sarrofon keyinroq bunyod etilgach, ansambl tarkibiga kiritilgan. Me'moriy jihatdan u Masjidi Baland singari supa ustiga qurilgani bilan e'tiborga loyiqdir. Mazkur masjid hozirgi kunga qadar nisbatan yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, bugungi kunda uning hududida hunarmandlar do'konlari faoliyat yuritmoqda.

Ubaydullaxon davridagi muhim me'moriy bunyodkorlik ishlardan biri Masjidi Kalon qarshisida 1535–1536-yillarda Sayid Abdulloh Yamaniy tomonidan Mir Arab madrasasining barpo etilishi bilan bog'liqdir. Mazkur madrasa Shayboniylar davri me'morchiligining yirik va nufuzli namunalaridan biri bo'lib, uning tarkibida masjid ham mavjud bo'lgan. Ushbu masjid madrasa diniy-ma'rifiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qilgan.

Validai Abdulazizxon masjidi ham Buxoro me'moriy merosida alohida o'rin tutadi. Uzoq vaqt davomida mazkur masjid ilmiy adabiyotlarda XVII asrga mansub obida sifatida talqin etilib, "Xalifa Xudoydod" yoki "Validai Abdulazizxon" masjidi nomlari bilan tilga olingan[6, –B.112]. Biroq 1989-yilda olib borilgan epigrafik tadqiqotlar natijasida ushbu qarashning xato ekani aniqlanib, masjid Abdulazizxon (1539–1550) buyrug'i bilan bunyod etilgani oydinlashgan. Ustun poydevoridan topilgan yozuvda hukmdorning mazkur inshootni o'z mablag'i hisobidan qurgani hamda uni vaqf mulki bilan ta'minlagani qayd etiladi. Shuningdek, masjidning shimoliy kirish eshigi tepasidan topilgan rangli mozaika bitigida ham bu muqaddas

qurilish Alloh roziligi yo'lida Abdulaziz Bahodir tomonidan xayriya tariqasida bunyod ettirilgani ta'kidlanadi[3,. -B. 158].

Shayboniy hukmdorlari ta'mirtalab masjidlarni qayta tiklash ishlariga ham alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Abdulaziz ibn Ubaydullaxon Xoja Zayniddin masjidini[13, -B.239], shuningdek, qadimiy me'moriy obidalardan biri bo'lgan Mag'oki Attor masjidini sezilarli darajada ta'mirlatirgan. Me'moriy-konstruktiv usullar, uslubiy belgilar, g'isht terish texnikasi hamda majolika yozuvlari tahlili sharqiy peshtoqning aynan Abdulazizxon davrida bunyod etilganini ko'rsatadi[11, -B.24]. Mazkur holat Shayboniy hukmdorlarining me'moriy merosga bo'lgan munosabati faqat yangi inshootlar barpo etish bilan cheklanmaganini, balki mavjud diniy-me'moriy obidalarini saqlash va qayta tiklashga ham izchil e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

XVI asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Hasan Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asari Shayboniy davri Buxoro me'morchiligi tarixini yoritishda muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda Ubaydullaxon (1533-1539) hamda uning o'g'li Abdulazizxon hukmronligi davrida Buxoroda amalga oshirilgan yirik bunyodkorlik ishlari, xususan, Bahouddin Naqshband majmuasi bilan bog'liq xonaqoh va dahma haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan[1, -B.40-47]. Shu jihatdan, ushbu manba nafaqat davrning me'moriy hayotini, balki hukmdorlarning diniy-ma'naviy markazlarga bo'lgan e'tiborini ham ochib beruvchi muhim tarixiy dalil sifatida baholanishi mumkin.

Hasan Nisoriyning qayd etishicha, Bahouddin Naqshband me'moriy hazirasi tarkibidagi eng yirik, me'moriy mahorat nuqtayi nazaridan eng mukammal hamda badiiy tuzilishi jihatidan nihoyatda noyob inshoot Masjidi Jome' hisoblangan. Muallifning ma'lumotiga ko'ra, mazkur masjid Abdulazizxon tomonidan 1544-yilda qurdirilgan. Ushbu dalil Abdulazizxon hukmronligi davrida me'morchilik taraqqiyoti izchil davom etib, ayniqsa diniy-majmuaviy inshootlar qurilishida sezilarli yuksalish kuzatilganini ko'rsatadi. Bu jarayon, o'z navbatida, Shayboniy hukmdorlarining me'moriy siyosati faqat amaliy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaganini, balki diniy markazlar nufuzini mustahkamlash va ularning me'moriy qiyofasini boyitishga ham qaratilganini anglatadi.

Abdulazizxon mamlakatni idora etgan davrda Buxoroda bir qator yirik me'moriy inshootlarning barpo etilgani kuzatiladi. Jumladan, Toqi Sarrofon va uning tarkibidagi guzar masjidi ham aynan shu hukmdor nomi bilan bog'liq holda tilga olinadi[12, -B.12]. Mazkur holat Abdulazizxon davrida Buxoro shahrining me'moriy qiyofasi nafaqat diniy, balki savdo va jamoat inshootlari hisobiga ham shakllanganini ko'rsatadi. Demak, bu davrda me'morchilik shaharning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

Abdullaxon II hukmronligi davrida markazlashgan siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishi va davlat barqarorligining ta'minlanishi XVI asr Movarounnahr me'morchiligi taraqqiyotining eng yuksak bosqichini yuzaga keltirdi. Aynan shu davrda Buxoro me'morchilik maktabi faol ravishda shakllanib, masjid, madrasa va xonaqoh kabi diniy inshootlarning me'moriy tiplari yanada takomillashdi. Buxoro shahridagi ko'plab me'moriy obidalarining bevosita Shayboniy davri, ayniqsa, Abdullaxon II hukmronligi davrida bunyod etilgani ushbu davrning qurilish va me'morchilik sohasidagi alohida o'rnini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda tarixiy obida sifatida qadrlanayotgan me'moriy inshootlar o'z davrida muayyan ijtimoiy ehtiyoj, siyosiy zarurat va ma'naviy maqsadlar asosida barpo etilgan. Shu ma'noda, Abdullaxon II ning hokimiyatga kelishi bilan Sumitan qishlog'ida o'z piri Xoja Islom

(1492–1563) uchun masjid qurdirishga kirishgani tasodifiy hol emas edi[9, –B.244]. Mazkur tashabbus, bir tomondan, hukmdorning diniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tiborini, ikkinchi tomondan esa, o'sha hududda masjid mavjud bo'lmagani sababli yangi diniy markaz barpo etishga bo'lgan amaliy ehtiyojni aks ettiradi.

1579–1580-yillarda Gavkushon madrasasining shimoliy qismida Juybor shayxi Xoja Islomning o'g'li Xoja Sa'd tomonidan Buxorodagi ikkinchi jome masjid hisoblanuvchi Xoja Kalon masjidi bunyod etilgan[8, –B.101]. Mazkur inshoot me'moriy tuzilishi jihatidan an'anaviy juma masjidi tipiga mansub bo'lib, hovli perimetri bo'ylab joylashtirilgan ravoqli-ustunli galereya hamda hovlining bo'ylama o'qi chuqur qismida barpo etilgan peshtoq-gumbazli zal bilan tavsiflanadi.

Abdullaxon II ham bunyodkorlik ishlarida bevosita ishtirok etgan hukmdorlardan biri edi. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, u 1559–1568-yillar oralig'ida Buxoroda keng ko'lamli qurilish ishlarini olib borgan[2, –B.157]. Shoh Axsiiy, Fayzobod va Chor-Bakr masjid-xonaqohlari aynan shu davrda bunyod etilgan. Hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagan Shoh Axsiiy masjidi ham o'sha yillarda qurilgan bo'lib, 17 ustunli qilib barpo etilgan. Vaqf hujjatlarida bu masjid-xonaqoh Mavlono Poyanda Muhammad Axsiiy tomonidan qurilgani qayd etiladi[14]. Hozirda esa u Fayzobod Jome' masjidi nomi bilan mashhur[12, –B.243].

1585–1586-yillarda Buxoro shahrida Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan Ko'kaldosh masjidi bunyod etilgan. Masjid pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, Mirzo Hamdam madrasasining ro'parasida joylashgan[5, –B.183]. Vaqf hujjatlarida ham ushbu inshoot aynan Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan qurdirilgani qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar davrida masjid me'morchiligi sezilarli taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda Masjidi Kalon, Xoja Kalon masjidi, Xoja Zayniddin masjid-xonaqohi, Mulla Orziy yoki Toqi Sarrofon masjidi, Volidai Abdulazizxon masjidi, Shoh Axsiiy masjidi, Fayzobod masjid-xonaqohi, Namozgoh masjidi hamda Ko'kaldosh masjidi kabi inshootlar Buxoroning diniy-me'moriy qiyofasini shakllantirishda muhim o'rin tutdi. Mazkur masjidlar nafaqat ibodat maskani, balki mahalla, guzar, ta'lim va ijtimoiy hayot markazlari sifatida ham faoliyat ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Shayboniylar davri masjidlari me'moriy tuzilishi, funksional vazifasi va bezak uslubi jihatidan o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Xususan, jome masjidlar va guzar masjidlarining shakllanishi, masjid-xonaqoh tipidagi inshootlarning paydo bo'lishi, peshtoq-gumbazli kompozitsiyalar, ravoqli-ustunli galereyalar, ayvonli yechimlar hamda pishiq g'isht va koshin bezaklarining keng qo'llanilishi bu davr masjid me'morchiligining asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, ayrim masjidlarning qayta ta'mirlanishi va yangidan bezatilishi Shayboniy hukmdorlarning mavjud me'moriy merosni saqlashga ham alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon II davrida masjidlar qurilishi va ta'miri davlat hokimiyati, diniy homiylik va shahar hayoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. Xoja Islom, Xoja Sa'd, Qulbobo Ko'kaldosh kabi shaxslarning bunyodkorlik faoliyati esa mazkur jarayonda diniy arboblardan va mahalliy homiylarning ham muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. Demak, Shayboniylar davri Buxoro masjidlari ushbu davrning diniy, ijtimoiy va me'moriy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim tarixiy yodgorliklar bo'lib, ularni kompleks o'rganish Buxoro me'morchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб / форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 112 б.
2. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома («Шарафномаи шоҳий»). Биринчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси; Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 416 б.
3. Бабаджанов Б. Эпиграфические памятники Бухары // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1997. – № 9–10–11. – С. 157–161.
4. Всеобщая история архитектуры. В 12 томах. Том 8: Архитектура стран Средиземноморья, Африки и Азии. VI–XIX вв. / Под ред. Ю. С. Яралова (отв. ред.) и др. – Москва: Стройиздат, 1969. – 491 с.
5. Сухарева О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976. – 370 с.
6. Ремпель Л. И. Далекое и близкое: Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент: Изд-во им. Гафура Гуляма, 1982. – 300 с.
7. Шишкин В. А. Фирман 1541 г. на портале большой соборной мечети Бухары // История материальной культуры Узбекистана. – Вып. 5. – Ташкент, 1964. – С. 161–168.
8. Юсупова М. А. Эволюция зодчества Бухары XVI – начала XVII века // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1997. – № 9–10–11. – С. 97–108.
9. Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI–XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни: Тарих фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 308 б.
10. Зоҳидов П. Хожа Баҳроуддин Нақшбанд меъморий ҳазираси. – Тошкент, 2015. – 12 б.
11. Алмейев Р., Махмудов К. Қадимги Мағок жумбоқлари. – Бухоро: “Yoqub Dovud” босмаҳонаси, 2020. – 136 б.
12. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2012. – 291 б.
13. Ўзбекистон ислом обидалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 264 б.
14. Мечеть-хонакох Файзиобод [Электронный ресурс] // Rusrav.uz: портал о культурном наследии Узбекистана. – 2018. – 18 января.